

O‘zbekiston Respublikasining

QONUNI

Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida

◄(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

3-modda. Asosiy tushunchalar
<p>Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi: agent-bank – kafolatlangan omonatlar boʻyicha kompensatsiya toʻlash uchun Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan tanlab olingan bank; badallar – bir yoʻla toʻlanadigan, kalendar va maxsus badallar tarzida banklar tomonidan Omonatlarni kafolatlash jamgʻarmasiga toʻlanishi lozim boʻlgan pul mablagʻlari; kafolatlash obyekti – omonatchining bankdagi ushbu Qonunga muvofiq kafolatlanadigan pul mablagʻlari; kafolatlangan omonat – kafolatlangan omonatlar boʻyicha kompensatsiya toʻlanadigan kafolatlash obyekti yoki uning bir qismi; kafolatlangan omonatlar boʻyicha kompensatsiya (bundan buyon matnda kompensatsiya deb yuritiladi) – kafolatlash hodisasi yuzaga kelganda Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan toʻlanadigan pul mablagʻlari; kafolatlash hodisasi – bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish va bankni majburiy tugatish toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) tomonidan qaror qabul qilinishi natijasida yuzaga keladigan holat; Omonatlarni kafolatlash jamgʻarmasi (bundan buyon matnda Jamgʻarma deb yuritiladi) – ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan boshqariladigan, alohida ajratilgan mablagʻlar yigʻindisi; omonatchi – bank bilan bank omonati shartnomasini yoki bank hisobvaragʻi shartnomasini tuzgan jismoniy yoki yuridik shaxs yoxud omonat uning foydasiga qoʻyilgan shaxs.</p>
<p>2-bob. Omonatlarni kafolatlash agentligining huquqiy maqomi, faoliyati va uni boshqarish</p>
<p>4-modda. Omonatlarni kafolatlash agentligining faoliyati toʻgʻrisida umumiy qoidalar</p>
<p>Omonatlarni kafolatlash agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) davlat muassasasi boʻlib, u banklardagi omonatlarning himoya qilinishini kafolatlash sohasidagi vakolatlari organ hisoblanadi.</p> <p>Agentlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:</p> <p>Jamgʻarmani boshqarish;</p> <p>Jamgʻarma mablagʻlari hisobidan ushbu Qonunga muvofiq kompensatsiyalar toʻlash;</p> <p>bankni sanatsiya qilishda Jamgʻarma va sanatsiya jamgʻarmasi mablagʻlaridan foydalanish;</p> <p>kafolatlash obyektlarining egalari boʻlgan omonatchilarning manfaatlarini himoya qilish;</p> <p>jamoatchilikning bank tizimiga boʻlgan ishonchini oshirish va bank tizimi barqarorligini taʼminlash.</p> <p>Agentlik oʻz vakolatlarini amalga oshirishda mustaqildir.</p> <p>Agentlik Jamgʻarma mablagʻlarini va sanatsiya jamgʻarmasi mablagʻlarini saqlash uchun Markaziy bankda, shuningdek Agentlikning operatsion faoliyatini amalga oshirish uchun tijorat bankida hisobvaraqni ochadi.</p> <p>Agentlik moliyaviy yordam koʻrsatishi va xayriya faoliyati bilan shugʻullanishi, shuningdek yuridik shaxslarning muassisi boʻlishi mumkin emas, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.</p> <p>Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga, shuningdek yuridik shaxslarga, shu jumladan banklarga Agentlikning faoliyatiga aralashish taqiqlanadi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.</p> <p>Davlat muassasalarining tashkil etilishi (qayta tashkil etilishi), faoliyat yuritishi va tugallashi tartibini belgilaydigan qonunchilik hujjatlari Agentlikning faoliyatiga nisbatan ushbu Qonunga zid boʻlmagan qism boʻyicha tatbiq etiladi.</p>
<p>5-modda. Agentlikning huquqlari</p>
<p>Agentlik:</p> <p>banklardan ushbu Qonun 17-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan badallarning oʻz vaqtida va toʻliq miqdorda toʻlanishini talab qilishga;</p> <p>banklardan istalgan vaqtda kafolatlash obyektlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni egasizlantirilgan tarzda, shu jumladan Agentlik oʻz majburiyatlarini bajarishi uchun kafolatlash obyektlari va kafolatlangan omonat summalarni aniqlashni uchun zarur boʻlgan axborotni soʻrab olishga, shuningdek olingan axborot boʻyicha tushuntirish berilishini talab qilishga;</p> <p>Markaziy bankdan Agentlik oʻz majburiyatlarini bajarishi uchun zarur boʻlgan maʼlumotlar va axborotni soʻrab olishga;</p> <p>maxsus badallar toʻlanishini belgilashga;</p> <p>Jamgʻarma mablagʻlarini toʻldirish maqsadida yuridik shaxslardan qarzar, shuningdek grantlar va ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa qarz mablagʻlarini olishga;</p> <p>ushbu Qonunga muvofiq investitsiya faoliyatini amalga oshirishga;</p> <p>Jamgʻarma mablagʻlari yetarli boʻlmagan taqdirda, likvidlikni taʼminlash uchun Markaziy bank tomonidan maqbul deb topilgan taʼminot asosida Markaziy bank bilan kredit shartnomalarini tuzishga;</p> <p>jamoatchilikni omonatlarni kafolatlash tizimi toʻgʻrisida xabardor etishni banklardan talab qilishga;</p> <p>banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari toʻgʻrisidagi qonunchilik talablarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish toʻgʻrisida banklarga koʻrsatmalar yuborishga;</p> <p>Markaziy bank tomonidan banklarda oʻtkaziladigan inspeksiyada (tekshiruvlarda) banklar tomonidan omonatlarni himoya qilish kafolatlari toʻgʻrisidagi qonunchilik talablariga banklar rioya etishga oid qismida ishtirok etishga;</p> <p>kompensatsiyalar toʻlash jarayonini amalga oshirish chogʻida agent-bank vazifalarini bajarish uchun bir yoki bir nechta bankni tanlashga;</p> <p>agar kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan bankning tugatuvchisi (bundan buyon matnda tugatuvchi deb yuritiladi) tomonidan taqdim etilgan axborot va maʼlumotlar kompensatsiyalarni toʻlash boʻyicha tabdirarni amalga oshirish uchun yetarli boʻlmasa, tugatuvchidan qoʻshimcha axborot va maʼlumotlarni, shu jumladan hujjatlarning koʻchirma nusxalarini soʻrab olishga haqli.</p> <p>Agentlik qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin.</p>
<p>6-modda. Agentlikning majburiyatlari</p>
<p>Agentlik:</p> <p>omonatlarni kafolatlash tizimida ishtirok etayotgan banklarning reestrini yuritishi;</p> <p>kalendar badal stavkasini belgilashi;</p> <p>ushbu Qonunga muvofiq banklar tomonidan Jamgʻarmaga toʻlanishi lozim boʻlgan badallarning toʻgʻri hisoblab chiqilganligi, oʻz vaqtida va toʻliq oʻtkazilganligi ustidan nazoratni amalga oshirishi;</p> <p>Jamgʻarma mablagʻlaridan va sanatsiya jamgʻarmasi mablagʻlaridan banklarni sanatsiya qilishda foydalanishi;</p> <p>muntazam ravishda, biroq uch yilda kamida bir marta kafolatlangan omonat miqdorini va Jamgʻarma mablagʻlarining maqsadli miqdorini baholashi;</p> <p>kafolatlash hodisasi yuzaga kelganda kompensatsiyani ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda, shartlarda va miqdorlarda toʻlashi;</p> <p>kafolatlash obyektlari egalarga kompensatsiyalar toʻlash uchun Agentlikka taqdim etilgan reestrdagi oʻzlariga taalluqli maʼlumotlar bilan tanishish imkoniyatini berishi;</p> <p>kafolatlash hodisasi yuzaga kelganda kompensatsiyalar toʻlash jarayoni toʻgʻrisidagi dolzarb axborotni oʻz rasmiy web-saytida oʻrion qilishi, shuningdek omonatchilarning soʻrovlariga koʻra ularning talablari toʻgʻrisidagi axborotni taqdim etishi;</p> <p>ushbu Qonun talablariga muvofiq jamoatchilikni omonatlarni kafolatlash tizimi toʻgʻrisida xabardor qilishi;</p> <p>ushbu Qonunning 15-moddasida nazarda tutilgan majburiyatlar banklar tomonidan buzilganligi toʻgʻrisida Markaziy bankni xabardor qilishi;</p> <p>oʻz vazifalarini bajarish jarayonida banklar va ularning omonatchilari toʻgʻrisida maʼlum boʻlib qolgan axborotdan faqat Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadlarida foydalanishi;</p> <p>oʻz vazifalarini bajarish jarayonida oʻziga maʼlum boʻlib qolgan yoki ushbu Qonunga muvofiq taqdim etilgan maʼlumotlarning, shu jumladan bank yoki tijorat sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarning yoxud qonun bilan qoʻriqlanadigan boshqa sirimib but saqlanishi va maxfiyligini taʼminlashi;</p> <p>Jamgʻarma mablagʻlarining va sanatsiya jamgʻarmasi mablagʻlarining hisobini alohida-alohida yuritishi shart.</p> <p>Agentlik zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham boʻlishi mumkin.</p>
<p>7-modda. Agentlikning boshqaruv organlari</p>
<p>Agentlikning kuzatuv kengashi (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) va Agentlikning bosh direktori (bundan buyon matnda bosh direktor deb yuritiladi) Agentlikning boshqaruv organlaridir.</p>
<p>8-modda. Kengash</p>
<p>Kengash Agentlikning yuqori boshqaruv organidir.</p>

Kengash besh nafar aʼzodan iborat boʻlib, uning tarkibiga Markaziy bank raisi, Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining oʻrinbosari, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Oʻzbekiston banklar assotsiatsiyasining tegishincha mazkur davlat organi va tashkilot tomonidan tayinlangan bittadan vakili hamda Markaziy bank tomonidan tayinlanadigan mustaqil aʼzo kiradi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida koʻrsatilgan davlat organlari va tashkilot Kengash aʼzolari tayinlangan kundan eʼtiboran besh ish kuni ichida Agentlikni xabardor qiladi.

Markaziy bank raisi Kengash raisi hisoblanadi. Rais oʻrinbosari Kengash aʼzolari orasidan saylanadi.

Ushbu moddaning vakolatlari muddati ular tayinlangan kundan eʼtiboran besh yilni tashkil etadi, bundan Kengash raisi mustasno. Kengash aʼzolari takroran tayinlanishi mumkin.

Kengash aʼzolariga qonunchilikka muvofiq haq toʻlanadi.

Kafolatlari muddati tugagan Kengash aʼzosi oʻz vazifalarini Kengashning yangi aʼzosi tayinlanguniga qadar bajarib turadi.

Kengash aʼzolari ularning nomzodini Kengashda vakil sifatida koʻrsatgan davlat organlarining yoki tashkilotning manfaatlaridan qatʼi nazar, oʻz vazifalarini xolisona bajarishi shart.

9-modda. Kengash aʼzolariga qoʻyiladigan talablar
<p>Quyidagi shaxs Kengash aʼzosi etib tayinlanishi mumkin:</p> <p>Oʻzbekiston Respublikasida yashayotgan;</p> <p>ishchanlik obroʻsiga doir talablarga mos boʻlgan;</p> <p>oliy iqtisodiy yoki yuridik maʼlumotga, moliya-bank yoki huquq sohasida kamida besh yil rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega boʻlgan shaxs.</p> <p>Ishtanlik obroʻsiga doir talablar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:</p> <p>Iqtisodiy sohadagi jinoyati yoki boshqaruv tartibiga qarshi jinoyati yoxud jinoyi faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmi moliyalashtirish va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bogʻliq jinoyati uchun tugallanmagan yoxud olib tashlanmagan sudlanganlik holati mavjud emasligini;</p> <p>moliya (kredit) tashkilotining moliyaviy ahvoli yomonlashishiga yoki bankrot deb topilishiga yoki amalga oshirayotgan faoliyati tugatilishiga olib kelgan harakatlarni va (yoki) harakatsizlikni sodir etishga aloqadorligini tasdiqlovchi hujjatlari mavjud emasligini.</p>

Quyidagi shaxs Kengash aʼzosi boʻlishi mumkin emas:

bank xodimi;

bankning ustav kapitalida besh foizdan yuqori ulushga bevosita yoki bilvosita ega boʻlgan shaxs yoki shunday ulushning benefitsiar mulkdori;

bank boshqaruv aʼzosining, muhim ahamiyatga ega xodimning va ushbu qismning uchunchi xatboshisida koʻrsatilgan shaxslarning yaqin qarindoshi;

Kengash aʼzolarining va bosh direktorning yaqin qarindoshi;

egallab turgan lavozimi Kengash aʼzosi sifatidagi vazifalarini bajarish chogʻida manfaatlar toʻqnashuviga olib kelishi mumkin boʻlgan shaxs.

10-modda. Kengashning vakolatlari
<p>Kengash:</p> <p>Agentlik faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;</p> <p>Agentlikning ustavini, odob-axloq kodeksini, Agentlikning faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarini, shuningdek ularga kiritiladigan oʻzgartirish va qoʻshimchalarni tasdiqlaydi;</p> <p>tovarlar va xizmatlarni xarid qilish, favqulodda vaziyatlarda harakatlarni rejalashtirish qoidalarini, shuningdek ularga kiritiladigan oʻzgartirish va qoʻshimchalarni tasdiqlaydi;</p> <p>Agentlikning strategik va yillik rejalarini tasdiqlaydi hamda ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi;</p> <p>Agentlikning tashkiliy tuzilmasini va shtatlar jadvalini tasdiqlaydi;</p> <p>Agentlikning yillik byudjetini va unga oʻzgartirishlarni, moliyaviy hisobotlarni, yillik hisobotini va boshqa hisobotlarini tasdiqlaydi;</p> <p>bosh direktorni lavozimiga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, uning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;</p> <p>Agentlik xodimlarining, shu jumladan bosh direktorning mehnatiga haq toʻlash tizimini tasdiqlaydi;</p> <p>kalendar badal stavkasini barcha banklar uchun yagona boʻlgan stavkani va (yoki) banklarning tavakkalchilik darajasidan kelib chiqqan holda aniqlanadigan stavkalarini tasdiqlash orqali belgilaydi;</p> <p>maxsus badalni belgilash toʻgʻrisida qaror qabul qiladi, shu jumladan maxsus badal miqdorini va uni toʻlash shartlarini belgilaydi;</p> <p>Jamgʻarma mablagʻlarining maqsadli miqdorining, kafolatlangan omonat miqdorining yetarilgini baholash va bankning depozit bazasini aniqlash uslubiyatini tasdiqlaydi, shuningdek ushbu Qonunda nazarda tutilgan yuridik shaxslardan qarz mablagʻlarini jalb etish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi;</p> <p>Agentlikning faoliyati bilan bogʻliq xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish va ularga aʼzo boʻlish, ular bilan omonatlarni kafolatlash sohasida axborot almashish boʻyicha hamkorlik qilish toʻgʻrisida bitimlar tuzish haqida qaror qabul qiladi;</p> <p>Kengash aʼzosining vakolatlarini tugatish uchun asoslar yuzaga kelganda Kengash aʼzosini tayinlagan davlat organini yoki tashkilotni Kengash aʼzosining vakolatlari tugatilganligi toʻgʻrisida xabardor etadi.</p> <p>Kengash qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.</p>

11-modda. Kengashning majlislari
<p>Kengashning navbatdagi majlislari yillik jadvalga muvofiq har chorakda kamida bir marta oʻtkaziladi. Yillik jadval Kengash raisi tomonidan har yilning 31-dekabrdan kechiktirmay tasdiqlanadi.</p> <p>Kengashning navbatdagi majlislari Kengash raisi tomonidan chaqiriladi.</p> <p>Kengashning navbatdan tashqari majlislari Kengash raisi, Kengashning ikki nafar aʼzosi yoki bosh direktor tomonidan istalgan vaqtda chaqirilishi mumkin.</p> <p>Kengash majlisi unda Kengashning kamida uch nafar aʼzosi ishtirok etgan taqdirda vakolatlari boʻladi.</p> <p>Kengashning qarorlari Kengash majlisida ishtirok etayotgan Kengash aʼzolarining oddiy koʻpchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng boʻlib qolgan taqdirda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.</p> <p>Kengash majlislarida Kengash raisi, u yoʻq boʻlganda esa – Kengash raisining oʻrinbosari raislik qiladi. Kengash raisi va uning oʻrinbosari yoʻq boʻlgan taqdirda Kengash majlisida ishtirok etayotgan Kengash aʼzolari Kengash aʼzolaridan birini Kengash majlisida raislik qiluvchi vazifasini bajarish uchun saylaydi.</p> <p>Kengash majlislari Kengash aʼzolarining bevosita ishtirokida, alohida hollarda videokonferensaloqa tizimidan foydalanilgan holda oʻtkaziladi.</p> <p>Kengash majlislarining bayonnomalari Kengash majlisida hozir boʻlgan barcha aʼzolar tomonidan imzolanadi.</p> <p>Ehtimoliy manfaatlar toʻqnashuvi mavjud boʻlmagan taqdirda, Bosh direktor Kengash majlislarida ovoz berish huquqisiz ishtirok etishi mumkin.</p> <p>Kengash koʻrilayotgan masalalar boʻyicha fikr bildirish uchun Kengash majlislariga uchinchi shaxslarni, shu jumladan banklarning vakillarini ovoz berish huquqisiz va maxfiy axborotni himoya qilish boʻyicha choralar koʻrish sharti bilan taklif etishi mumkin.</p> <p>Kengash majlislarini oʻtkazish tartibi Kengash tomonidan belgilanadi.</p>

12-modda. Kengash aʼzolarining vakolatlarini tugatish
<p>Kengash aʼzolarining vakolatlarini tugatish uchun quyidagilar asos boʻladi:</p> <p>Kengash aʼzosining vakolatlari muddati tugaganligi;</p> <p>Kengash aʼzosi uni tayinlagan davlat organi yoki tashkilot tomonidan chaqirib olinganligi;</p> <p>Kengashning aʼzosi oʻn ikki oy davomida kamida uchta majlisda uzri sabablarisiz yoʻq boʻlganligi;</p> <p>sudning Kengash aʼzosini jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topish haqidagi qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi mavjudligi;</p> <p>Kengash aʼzosining ushbu Qonunning 9-moddasida belgilangan talablarga javob bermasligini tasdiqlovchi asoslar yuzaga kelganligi;</p> <p>davlat tibbiy komissiyasining xulossasiga asosan Kengash aʼzosi sogʻligʻining holatiga koʻra oʻz vazifalarini bajara olmasligi;</p>

odob-axloq kodeksi normalarini jiddiy tarzda buzganligi, shu jumladan manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisidagi qonunchilikka muvofiq manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida xabardor qilmaganligi;

Kengash aʼzosi vafot etganligi yoki sudning qarori bilan vafot etgan deb eʼlon qilinganligi.

Kengash raisi ushbu Qonun 8-moddasining ikkinchi qismida koʻrsatilgan davlat organlaridan va tashkilotdan Kengash aʼzosini tayinlashni, shu jumladan vakolatlari tugatilgan Kengash aʼzosining oʻrniga Kengash aʼzosini tayinlashni talab qilishga haqli. Bunda Kengash aʼzolarini tayinlovchi davlat organlari va tashkilot mazkur talab olingan kundan eʼtiboran yetti ish kuni ichida Kengash aʼzosini tayinlashi shart.

13-modda. Bosh direktor
<p>Bosh direktor Agentlikning joriy faoliyati uchun javobgar boʻladi va uni boshqaradi.</p> <p>Bosh direktor Kengash tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.</p> <p>Bosh direktor ushbu Qonunning 9-moddasida belgilangan talablarga muvofiq boʻlishi kerak.</p> <p>Bosh direktor besh yil muddatga tayinlanadi. Ishining samaradorligi koʻrsatkichlaridan kelib chiqib, ayni bir shaxs bosh direktor lavozimiga keyingi muddatlarga tayinlanishi mumkin.</p> <p>Bosh direktor Kengashga hisobdordir.</p> <p>Bosh direktorning huquq va majburiyatlari Agentlikning ichki hujjatlari hamda mehnat shartnomasi bilan tartibga solinadi.</p> <p>Bosh direktor:</p> <p>ushbu Qonun bilan oʻz zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun javobgar boʻladi, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi hududida va xorijda Agentlik nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi;</p> <p>Kengash qarorlarining ijrosini taʼminlaydi;</p> <p>ushbu Qonunda nazarda tutilgan badallarning banklar tomonidan oʻz vaqtida va toʻliq oʻtkazilganligi ustidan nazoratni amalga oshiradi;</p> <p>kompensatsiyalar toʻlanishini tashkil etadi;</p> <p>Agentlikning mulk-mulkini boshqaradi;</p> <p>Agentlikning yillik hisoboti va boshqa hisobottari tayyorlanishini taʼminlaydi;</p> <p>Agentlikning nomidan bitimlar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi;</p> <p>Agentlikning har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan oʻtkazilishini taʼminlaydi;</p> <p>banklar tomonidan banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari toʻgʻrisidagi qonunchilikning buzilishi hollari toʻgʻrisida Markaziy bankni xabardor etadi;</p> <p>Kengashning vakolatiga kiradigan masalalarni Kengash muhokamasiga kiritadi. Bosh direktorning zimmasida Kengash qarorlariga va mehnat shartnomasiga muvofiq boshqa majburiyatlar ham boʻlishi mumkin.</p>

3-bob. Omonatlarni kafolatlash tizimi. Jamgʻarma mablagʻlarini boshqarish
14-modda. Omonatlarni kafolatlash tizimi va uning ishtirokchilari
<p>Omonatlarni kafolatlash tizimi (bundan buyon matnda kafolatlash tizimi deb yuritiladi) kafolatlash hodisasi yuzaga kelganda Agentlik tomonidan omonatchilarga kompensatsiyalarni toʻlash orqali omonatchilarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.</p> <p>Kafolatlash tizimida Agentlik, banklar va kafolatlash obyektlarining egalari ishtirok etadi.</p> <p>Bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) ega boʻlgan bankning kafolatlash tizimida ishtirok etishi shart.</p> <p>Bank, shu jumladan mikromoliya banki va qonunchilikka muvofiq tashkil etilgan oraliq bank litsenziya berilgan paytdan eʼtiboran kafolatlash tizimining ishtirokchisiga aylanadi.</p> <p>Bankning kafolatlash tizimidagi ishtiroki litsenziya Markaziy bank tomonidan chaqirib olingan taqdirda tugatiladi.</p>

15-modda. Kafolatlash tizimida ishtirok etayotgan bankning majburiyatlari
<p>Kafolatlash tizimida ishtirok etayotgan bank:</p> <p>ushbu Qonunda nazarda tutilgan badallarni oʻz vaqtida va toʻliq miqdorda toʻlashi, bundan ushbu Qonun 17-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;</p> <p>toʻlangan badallar toʻgʻri hisoblanganligini tasdiqlovchi maʼlumotlarni Markaziy bank tomonidan belgilangan shaklda Agentlikka taqdim etishi;</p> <p>omonatchining soʻroviga koʻra bankning kafolatlash tizimidagi ishtiroki, qonunchilikka muvofiq toʻlanadigan kompensatsiya miqdorlari va uni toʻlash tartibi toʻgʻrisida axborot berishi;</p> <p>omonatchilar va kafolatlash obyektlari toʻgʻrisida aniq va toʻgʻri maʼlumotlarga ega boʻlishi;</p> <p>kafolatlash obyektlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibga muvofiq egasizlantirilgan tarzda, Agentlikning soʻroviga koʻra taqdim etishi;</p> <p>Agentlik oʻz majburiyatlarini bajarishi uchun boshqa axborot resurslaridan, shuningdek bankning boshlangʻich hisob hujjatlaridan qonunchilikka muvofiq foydalanish imkoniyatini berishi;</p> <p>kafolatlash tizimi toʻgʻrisida jamoatchilikni xabardor etishi;</p> <p>aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi tomonidan bankni ixtidor ravishda tugatish toʻgʻrisida qaror qabul qilinganligi haqida omonatchilarni xabardor etishi shart.</p> <p>Bankning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham boʻlishi mumkin.</p>

16-modda. Jamgʻarma mablagʻlarini shakllantirish
<p>Jamgʻarma mablagʻlarining manbalari quyidagilardan iborat:</p> <p>banklarning bir yoʻla toʻlanadigan, kalendar va maxsus badallari;</p> <p>badallar oʻz vaqtida va (yoki) toʻliq toʻlanmaganligi uchun penyalar;</p> <p>Agentlikning tugatilayotgan banka nisbatan talab qilish huquqini qanoatlanirishdan olingan mablagʻlar;</p> <p>Jamgʻarmaning vaqtincha boʻsh mablagʻlarini investitsiya qilishdan olingan daromadlar;</p> <p>yuridik shaxslardan, shu jumladan xalqaro moliya tashkilotlaridan jalb etilgan qarzar, grantlar, xayriya mablagʻlari, shuningdek ushbu Qonunga muvofiq jalb etilgan boshqa qarz mablagʻlari;</p> <p>qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.</p> <p>Jamgʻarma mablagʻlarining maqsadli miqdori banklardagi kafolatlash obyektlari umumiy summasining besh foizi darajasida belgilanadi. Mazkur miqdor Jamgʻarma mablagʻlarining, shu jumladan investitsiya qilingan mablagʻlarning har chorakning oxirgi kunidagi holatga koʻra barcha banklarning depozit bazasiga boʻlgan nisbati sifatida hisob-kitob qilinadi. Bunda Agentlik tomonidan jalb etilgan kredit va qarz mablagʻlarining summasi Jamgʻarmaning mablagʻlarida hisobga olinmaydi.</p> <p>Jamgʻarma mablagʻlarining miqdori ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan maqsadli miqdordan oshgan hamda ketma-ket ikki yil davomida Jamgʻarma mablagʻlarining maqsadli miqdordan yuqori darajada saqlanib turgan taqdirda, Kengash kalendar badalning stavkasini Agentlikning maʼmuriy va operatsion xarajatlari oʻrnini toʻliq qoplash uchun yetarli boʻlgan darajagacha pasaytirish toʻgʻrisida qaror qabul qilishi mumkin.</p> <p>Jamgʻarma mablagʻlarining miqdori ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan maqsadli miqdordan kamayib ketgan taqdirda, Kengash kalendar badal stavkasini qayta koʻrib chiqishi kerak.</p> <p>Jamgʻarmaning mablagʻlarini xatlash, undiruvini ushbu mablagʻlarga qaratish yoki ularni ushlab qolish mumkin emas.</p>

17-modda. Jamgʻarmaga toʻlanadigan badallar
<p>Banklar Jamgʻarmaga bir yoʻla toʻlanadigan, kalendar va maxsus badallar toʻlaydi.</p> <p>Oraliq banklar bir yoʻla toʻlanadigan badalni, shuningdek unga litsenziya berilgan kundan eʼtiboran oliy davomida kalendar va maxsus badallarni toʻlashdan ozod etiladi. Mazkur badallarni toʻlashdan ozod etilganlik oraliq bankingn ushbu Qonunda nazarda tutilgan talablarga rioya etish majburiyatini, shu jumladan Agentlikka maʼlumotlarni taqdim etish majburiyatini, shuningdek kafolatlash hodisasi yuzaga kelganda oraliq bankdagi kafolatlangan omonatlar boʻyicha kompensatsiyalar toʻlash boʻyicha Agentlikning majburiyatini bekor qilmaydi.</p> <p>Jamgʻarmaga badallar Oʻzbekiston Respublikasining milliy valyutasida toʻlanadi. Toʻlangan badallar summasi banklarning xarajatlari jumlasiga kiritiladi va soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadi.</p> <p>Bank tomonidan ushbu Qonunga muvofiq toʻlanadigan badallar va boshqa toʻlovlar bankingn litsenziyasiz chaqirib olingan kunga qadar hisoblanadi va mazkur bank omonatlarni kafolatlash tizimida ishtirok etayotgan banklarning reestridan chiqarilganligidan qatʼi nazar, Agentlikka toʻlanishi kerak.</p>

18-modda. Bir yoʻla toʻlanadigan badal
<p>Bir yoʻla toʻlanadigan badal deganda yangidan tashkil etilgan bank tomonidan, bundan oraliq bank va qayta tashkil etish yoʻli bilan tashkil etilgan bank mustasno, Jamgʻarmaga dastlabki toʻlanadigan pul mablagʻlari tushuniladi.</p>

Bankning bir yoʻla toʻlanadigan badali miqdori qonunchilikda belgilangan bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foizini tashkil etadi.

Bank tomonidan bir yoʻla toʻlanadigan badal litsenziya berilgan kundan eʼtiboran oʻn ish kuni ichida toʻlanishi kerak.

19-modda. Kalendar badal
<p>Kalendar badal deganda bank tomonidan Jamgʻarmaga har chorakda toʻlanadigan pul mablagʻlari tushuniladi.</p> <p>Kalendar badal hisobot choragidan keyingi oyingning 15 sanasidan kechiktirmay toʻlanishi kerak.</p> <p>Kalendar badal summasini hisob-kitob qilish Kengash tomonidan belgilangan kalendar badal stavkasini bankning depozit bazasi summasiga koʻpaytirish orqali amalga oshiriladi.</p> <p>Kalendar badal stavkasi chorak uchun 0,5 foizdan oshishi mumkin emas. Kalendar badalning stavkasi har yil 30-oktabrdan kechiktirmasdan belgilanadi.</p> <p>Bankning depozit bazasini aniqlash tartibi Kengash tomonidan belgilanadi.</p> <p>Agar Kengash kalendar badal stavkasini banklarning tavakkalchiliklari darajasidan kelib chiqib tasdiqlangan boʻlsa, banklarning tavakkalchiliklari darajasi baholash Kengash tomonidan tasdiqlangan uslubiyat asosida yoki Markaziy bank tomonidan taqdim etilgan tavakkalchiliklar tasnifi asosida amalga oshiriladi. Mazkur qismda nazarda tutilgan banklarning tavakkalchiliklari darajasi bahosi oshkor etilmaydi, bundan tavakkalchiliklar darajasi guruhlari toʻgʻrisidagi axborot mustasno. Agentlik bankingn tavakkalchiliklari darajasi bahosi haqida mazkur banka hamda Markaziy banka xabar beradi.</p> <p>Kalendar badalning tasdiqlangan stavkasi toʻgʻrisidagi axborot Agentlik tomonidan banklarga va Markaziy banka stavka tasdiqlangan kundan eʼtiboran besh ish kuni ichida taqdim etiladi. Kengash tomonidan kalendar badal stavkasi ushbu moddaning toʻrtinchi qismida belgilangan muddatda tasdiqlanmagan taqdirda, keyingi moliyaviy yil uchun amalda boʻlgan kalendar badal stavkasi qoʻllaniladi.</p> <p>Markaziy bank tomonidan omonatlarga pul mablagʻlari jalb qilinishining toʻxtatib turilishi yoki litsenziyaning chaqirib olinishi bankni tegishli chorak uchun kalendar badalni toʻlashdan ozod etmaydi.</p> <p>Litsenziya chaqirib olingan taqdirda joriy chorak uchun kalendar badal mazkur chorak boshidan litsenziya chaqirib olingan sanaga qadar oʻtgan kunlar soniga mutanosib ravishda hisoblanadi.</p> <p>Kalendar badal belgilangan muddatlarda toʻlanmagan yoki toʻliq toʻlanmagan taqdirda, Markaziy bank tomonidan qonunchilikka muvofiq qoʻllanilishi mumkin boʻlgan boshqa choralar va sanksiyalardan qat</p>

O‘zbekiston Respublikasining

QONUNI

Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2-bettlarda).

ushbu qismning uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan emitentlar tomonidan to‘liq kafolatlangan boshqa likvidli qiymatli qo‘zalarga; banklarning likvidligini boshqarishga doir talablar doirasida Markaziy bank tomonidan belgilangan boshqa yuqori likvidli aktivlarga.

Agentlik ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan aktivlardan Markaziy bankdan jalb etilgan kredit bo‘yicha majburiyatlarning bajarilish ta‘minoti sifatida foydalanishga haqli.

Kengash investitsiya siyosatini ishlab chiqishda Agentlikning likvidlikka bo‘lgan ehtiyojini inobatga olishi, likvidlikni saqlab turishi, Jamg‘armaning joylashiriladigan mablag‘lariga investitsiya qilinishi mumkin bo‘lgan aktivlarning xavfsizligini, shuningdek investitsiya faoliyatidan foyda olish Agentlikning birlamchi maqsadi bo‘lmagisini inobatga olishi kerak.

Agentlikning investitsiya siyosatida Jamg‘arma mablag‘larini ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan investitsiya qilinishi mumkin bo‘lgan aktivlarga joylashtirish tartibi, mezonlari, limitlari, konsentratsiyasi va qaytarish muddatlari belgilanadi.

Agentlik chet el shaxsilaridan olingan qarz mablag‘larini yoki Agentlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga investitsiya qilishdan olingan chet el valyutasidagi mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasiga konvertatsiya qilishni ta‘minlash uchun Markaziy bankda chet el valyutasida hisobvaraqlar ochishga haqli.

Agentlikning Jamg‘arma mablag‘larini investitsiya qilishdan olingan daromadlari foyda solig‘idan ozod etiladi.

23-modda. Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bankning krediti hisobidan qoplash
<p>Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini maxsus badal, shuningdek jalb qilingan mablag‘lar hisobidan qoplash uchun mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda, Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan byudjet ssudasini va (yoki) Markaziy bankdan kredit jalb etishi mumkin.</p> <p>Markaziy bank likvidlikni ta‘minlash uchun Agentlikka Markaziy bank tomonidan maqbul deb topilgan majburiyatlarning bajarilish ta‘minoti sharti bilan kredit berishga haqli.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan byudjet ssudasi shartlari Agentlik hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (bundan buyon matnda Iqtisodiyot va moliya vazirligi deb yuritiladi) o‘rtasida kelishiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kuchga kirganidan keyin byudjet ssudasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Agentlikning yozma so‘rovi kelib tushgan kundan e‘tiboran besh ish kuni ichida Agentlikka ajratilishi kerak.</p> <p>Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini qoplash uchun Agentlikka O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan va O‘zbekiston Respublikasi muomalada bo‘lgan, o‘xshash to‘lash muddatiga ega bo‘lgan qarz vositalari bo‘yicha foiz stavkasidan yuqori bo‘lishi mumkin emas.</p> <p>Bozor konyunkturası yaxshilanishi bilanoq Kengash ushbu Qonunning 19 va 20-moddalari talablariga muvofiq kalendaı badal stavkasini oshirish va maxsus badalni belgilash orqali banklardan mablag‘lar yig‘ish hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bank kreditini qaytarish bo‘yicha zarur bo‘lgan choralarni ko‘rishi kerak.</p> <p>Agentlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu moddada nazarda tutilgan byudjet ssudasini jalb etish tartibi va shartlarini belgilovchi bitim tuzishi kerak.</p>

23-modda. Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bankning krediti hisobidan qoplash
<p>Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini maxsus badal, shuningdek jalb qilingan mablag‘lar hisobidan qoplash uchun mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda, Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan byudjet ssudasini va (yoki) Markaziy bankdan kredit jalb etishi mumkin.</p> <p>Markaziy bank likvidlikni ta‘minlash uchun Agentlikka Markaziy bank tomonidan maqbul deb topilgan majburiyatlarning bajarilish ta‘minoti sharti bilan kredit berishga haqli.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan byudjet ssudasi shartlari Agentlik hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (bundan buyon matnda Iqtisodiyot va moliya vazirligi deb yuritiladi) o‘rtasida kelishiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kuchga kirganidan keyin byudjet ssudasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Agentlikning yozma so‘rovi kelib tushgan kundan e‘tiboran besh ish kuni ichida Agentlikka ajratilishi kerak.</p> <p>Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini qoplash uchun Agentlikka O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan va O‘zbekiston Respublikasi muomalada bo‘lgan, o‘xshash to‘lash muddatiga ega bo‘lgan qarz vositalari bo‘yicha foiz stavkasidan yuqori bo‘lishi mumkin emas.</p> <p>Bozor konyunkturası yaxshilanishi bilanoq Kengash ushbu Qonunning 19 va 20-moddalari talablariga muvofiq kalendaı badal stavkasini oshirish va maxsus badalni belgilash orqali banklardan mablag‘lar yig‘ish hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bank kreditini qaytarish bo‘yicha zarur bo‘lgan choralarni ko‘rishi kerak.</p> <p>Agentlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu moddada nazarda tutilgan byudjet ssudasini jalb etish tartibi va shartlarini belgilovchi bitim tuzishi kerak.</p>

23-modda. Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bankning krediti hisobidan qoplash
<p>Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini maxsus badal, shuningdek jalb qilingan mablag‘lar hisobidan qoplash uchun mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda, Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan byudjet ssudasini va (yoki) Markaziy bankdan kredit jalb etishi mumkin.</p> <p>Markaziy bank likvidlikni ta‘minlash uchun Agentlikka Markaziy bank tomonidan maqbul deb topilgan majburiyatlarning bajarilish ta‘minoti sharti bilan kredit berishga haqli.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan byudjet ssudasi shartlari Agentlik hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (bundan buyon matnda Iqtisodiyot va moliya vazirligi deb yuritiladi) o‘rtasida kelishiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kuchga kirganidan keyin byudjet ssudasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Agentlikning yozma so‘rovi kelib tushgan kundan e‘tiboran besh ish kuni ichida Agentlikka ajratilishi kerak.</p> <p>Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini qoplash uchun Agentlikka O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan va O‘zbekiston Respublikasi muomalada bo‘lgan, o‘xshash to‘lash muddatiga ega bo‘lgan qarz vositalari bo‘yicha foiz stavkasidan yuqori bo‘lishi mumkin emas.</p> <p>Bozor konyunkturası yaxshilanishi bilanoq Kengash ushbu Qonunning 19 va 20-moddalari talablariga muvofiq kalendaı badal stavkasini oshirish va maxsus badalni belgilash orqali banklardan mablag‘lar yig‘ish hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bank kreditini qaytarish bo‘yicha zarur bo‘lgan choralarni ko‘rishi kerak.</p> <p>Agentlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu moddada nazarda tutilgan byudjet ssudasini jalb etish tartibi va shartlarini belgilovchi bitim tuzishi kerak.</p>

23-modda. Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bankning krediti hisobidan qoplash
<p>Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini maxsus badal, shuningdek jalb qilingan mablag‘lar hisobidan qoplash uchun mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda, Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan byudjet ssudasini va (yoki) Markaziy bankdan kredit jalb etishi mumkin.</p> <p>Markaziy bank likvidlikni ta‘minlash uchun Agentlikka Markaziy bank tomonidan maqbul deb topilgan majburiyatlarning bajarilish ta‘minoti sharti bilan kredit berishga haqli.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan byudjet ssudasi shartlari Agentlik hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (bundan buyon matnda Iqtisodiyot va moliya vazirligi deb yuritiladi) o‘rtasida kelishiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kuchga kirganidan keyin byudjet ssudasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Agentlikning yozma so‘rovi kelib tushgan kundan e‘tiboran besh ish kuni ichida Agentlikka ajratilishi kerak.</p> <p>Jamg‘arma mablag‘larining taqchilligini qoplash uchun Agentlikka O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan va O‘zbekiston Respublikasi muomalada bo‘lgan, o‘xshash to‘lash muddatiga ega bo‘lgan qarz vositalari bo‘yicha foiz stavkasidan yuqori bo‘lishi mumkin emas.</p> <p>Bozor konyunkturası yaxshilanishi bilanoq Kengash ushbu Qonunning 19 va 20-moddalari talablariga muvofiq kalendaı badal stavkasini oshirish va maxsus badalni belgilash orqali banklardan mablag‘lar yig‘ish hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan byudjet ssudasi va (yoki) Markaziy bank kreditini qaytarish bo‘yicha zarur bo‘lgan choralarni ko‘rishi kerak.</p> <p>Agentlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu moddada nazarda tutilgan byudjet ssudasini jalb etish tartibi va shartlarini belgilovchi bitim tuzishi kerak.</p>

24-modda. Jamg‘arma mablag‘lari maqsadli miqdoring va kafolatlangan omonat miqdoring yetariligiini baholash
<p>Agentlik Jamg‘arma mablag‘larining maqsadli miqdori va kafolatlangan omonat miqdori yetariligiini baholashni uch yilda kamida bir marta amalga oshirishi shart.</p> <p>Agar Agentlik ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan baholash natijalari asosida Jamg‘arma mablag‘larining maqsadli miqdorini va (yoki) kafolatlangan omonat miqdorini o‘zgartirish zarurligi to‘g‘risida xulosaga kelsa, Kengash ularni o‘zgartirish haqidagi taklifi no‘ri bich qish uchun Markaziy bankka kiritadi.</p> <p>Markaziy bank Kengash tomonidan taqdim etilgan baholash natijalariga rozilik bildirgan taqdirda, ushbu Qonunga tegishli o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi.</p> <p>Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan va Markaziy bank bilan kelishilgan Jamg‘arma mablag‘lari maqsadli miqdoringin, kafolatlangan omonat miqdoringin yetariligiini baholash hamda bankingin deposit bazasini aniqlash uslubiyati Kengash tomonidan tasdiqlanadi.</p>

4-bob. Kafolatlash obyektlari, kompensatsiyalar to‘lash tartibi. Omonatchilarning huquqlari
25-modda. Kafolatlash obyektlari

Jismoniy shaxslarning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlarning, shuningdek yuridik shaxslarning banklardagi O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi va chet el valyutasidagi omonatlari kafolatlash obyektlaridin, bundan ushbu moddanning uchinchi qismida nazarda tutilgan omonatlar mustasno.

Kafolatlash obyektlini aniqlashda quyidagilar omonat deb hisoblanadi:

bank omonati shartnomasiga yoki bank hisobvarag‘i shartnomasiga muvofiq bankka qo‘yilgan, shu jumladan shartnomaning tegishli shartlari bajarilguniga qadar alohida hisobvaraqlarda saqlanadigan (“eskuro” xizmati), shuningdek omonat (depozit) sertifikatlari bilan tasdiqlangan pul mablag‘larining qoldigi;

bank omonati shartnomasi yoki bank hisobvarag‘i shartnomasi bo‘yicha hisoblangan, biroq kafolatlash hodisasi yuzaga kelguniga qadar to‘lanmagan foizlarning qoldigi‘, agar ularni hisoblash mazkur shartnomalarda nazarda tutilgan bo‘lsa, shuningdek omonat (depozit) sertifikatida belgilangan foizlarning hisoblangan, biroq to‘lanmagan qoldigi‘.

Quyidagilar kafolatlash obyekti bo‘lmaydi:

banklarning, nobank kredit tashkilotlarining, lizing tashkilotlarining, sug‘urta tashkilotlarining, investitsiya va pay fondlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining yoki chet davlat vakolatli organining tegishli litsenziyasiga yoki ruxsatiga asosan faoliyat yuritayotgan yoxud faoliyatini vakolatli organlari xabardor qilish tartibida amalga oshirayotgan boshqa moliya tashkilotlarining omonatlari;

davlat tashkilotlari va korxonalarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning davlat organlari omonatlari; bankka aloqador shaxslarning omonatlari, bundan bankingin boshqaruv a‘zolari va muhim ahamiyatga ega xodimlarining oxirgi uch oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari miqdoridan oshmaydigan omonatari mustasno; chet elda ochilgan shu‘ba banklardagi yoki bank filiallaridagi omonatlar; shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg‘arilgan pul mablag‘lari;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmi moliyalashtirish va mamlaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog‘liq faoliyatdan olinganligi sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlangan pul mablag‘lari.

Quyidagilar omonat hisoblanmaydi:

aksiyalar hamda banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq bankingin regulyativ kapitali tarkibiga kiritilgan boshqa vositalar; bank tomonidan chiqarilgan qarz qiymatli qog‘ozlari (ta‘minlangan va ta‘minlanmagan obligatsiyalar, oddiy veksellar);

bankning subordinar qarz majburiyatlari; bankning sayflarida saqlanayotgan pul mablag‘lari; hosila moliyaviy vositalar, jumladan bank tomonidan chiqarilgan fyuçherslar, forvard kontraktlari, svoplar va opsiyonlar bo‘yicha yuzaga keladigan talab qilish huquqi;

bankning mulk-mulkni ishonchi boshqarish faoliyati bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan talab qilish huçqi.

26-modda. Kompensatsiya miqdori
--

Bir bankda bir omonatchiga to‘lanadigan kompensatsiya quyidagi miqdorni tashkil etadi:

kafolatlash obyekti qoldig‘ining to‘liq hajmini, agar uning miqdori ikki yuz million so‘m yoki undan kam bo‘lsa;

ikki yuz million so‘mni, agar kafolatlash obyektning qoldigi‘ ikki yuz million so‘mdan ko‘p bo‘lsa.

Omonatchi bitta bankda bir nechta kafolatlash obyektlariga ega bo‘lgan taqdirda, mazkur kafolatlash obyektlari bo‘yicha to‘lanadigan kompensatsiyaning umumiy miqdori kafolatlash obyektingin miqdori va valyutasidan qat‘i nazar, ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan miqdordan oshmasligi kerak, bundan ushbu Qonun 28-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

27-modda. Kompensatsiya to‘lashning umumiy prinsiplari

Kafolatlash obyekti egasi bo‘lgan omonatchilarda kafolatlash hodisasi yuz bergan sanadan e‘tiboran Agentlikdan kafolatlangan omonat miqdoridan oshmagan summada kompensatsiyalar to‘lashni talab qilish huquqi, Agentlikda esa kafolatlash obyekti egasi bo‘lgan omonatchilar oldida kompensatsiyalarni to‘lash majburiyati yuzaga keladi.

Kompensatsiyaning summasi kafolatlash hodisasi yuz bergan sanaga hisob-kitob qilinadi va tugatuvchi tomonidan ushbu Qonun 29-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq taqdim etiladigan reestr asosida Agentlik tomonidan to‘lanadi. Bunda, agar omonatchining bank oldida majburiyati mavjud bo‘lsa, kompensatsiya summasi kafolatlangan omonat (kafolatlangan omonatlar) va omonatchining bunday bank oldidagi ijro muddati yetib kelgan majburiyati (majburiyatlari) summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Agar bank omonati shartnomasida yoki bank hisobvarag‘i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, kompensatsiya quyidagi shaxslarga to‘lanadi:

omonatchilarga, shu jumladan o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarga;

uchinchi shaxslarga, agar omonat uchinchi shaxslar, shu jumladan o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar foydasiga qo‘yilgan bo‘lsa;

qonuniy vakillarga yoki qonuniy vakillarning roziligi bilan voyaga yetmagan shaxslarga, agar omonat o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmagan uchinchi shaxslar foydasiga qo‘yilgan bo‘lsa.

Agar kafolatlash obyekti omonatchining yoki uchinchi shaxsning tugatilayotgan bank yoki uchinchi shaxs oldidagi majburiyatlarining bajarilishi ta‘minoti sifatida garovga qo‘yilgan bo‘lsa, kompensatsiya:

kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan sanada yoki agent-bank tomonidan kompensatsiya to‘lash uchun belgilangan muddat davomida qarzdor tomonidan olingan majburiyat bekor bo‘lgan (bajarilgan) taqdirda, omonatchiga to‘lanadi; majburiyat bekor bo‘lmagan (bajarilmagan) taqdirda, majburiyatning bajarilish ta‘minoti sifatida omonatchining boshqa bankda ochilgan hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

Agar kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan sanada kafolatlash obyekti omonatchining tugatilayotgan bank oldidagi majburiyatining bajarilishi ta‘minoti sifatida garovga qo‘yilgan bo‘lsa hamda uning miqdori faqat mazkur majburiyatni bajarish uchun yetarli bo‘lsa, kafolatlash obyekti majburiyatni bajarishga yo‘naltiriladi.

Chet el valyutasidagi kafolatlangan omonat bo‘yicha kompensatsiya Markaziy bankingin kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan sanadagi kursi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida to‘lanadi.

Omonatchiga umumiy summasi ushbu Qonun 26-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan miqdordan oshadigan bir nechta kafolatlangan omonatlar bo‘yicha kompensatsiya to‘langan taqdirda, kompensatsiya har bir omonatning tugatilayotgan bankdagi umumiy omonatlar miqdoridagi ulushiga mutanosib ravishda to‘langan deb hisoblanadi.

Qonunchilikka muvofiq meros huquqini yoki huquqiy vorislikni tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlar taqdim etiladigan kompensatsiya merosxo‘rlar va huquqiy vorislar yoki ularning vakolatli vakillariga to‘lanadi.

Ushbu Qonunga asosan to‘lanadigan kompensatsiyalar tugatish jarayonidagi bankdan bank omonati va (yoki) bank hisobvarag‘i shartnomasi bo‘yicha qaytarilayotgan pul mablag‘lari deb hisoblanadi.

28-modda. Qo‘shimcha kompensatsiya
<p>Ushbu moddada nazarda tutilgan hollarda, kafolatlash obyekti egasi bo‘lgan omonatchi qo‘shimcha kompensatsiya olish huquqiga ega bo‘ladi.</p> <p>Kafolatlash obyekti merosga bo‘lgan huquq bo‘yicha olinganda yoki bank qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilgan kundan e‘tiboran olti oy davomida kafolatlash hodisasi yuzaga kelsa, kafolatlash obyekti egasi bo‘lgan omonatchiga qo‘shimcha ravishda to‘lanadigan pul mablag‘lari qo‘shimcha kompensatsiyadir.</p> <p>Bank qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilgan taqdirda, qo‘shimcha kompensatsiya qayta tashkil etishda ishtirok etgan har bir bankdagi kafolatlash obyektlari bo‘yicha to‘lanadi. Bunda qayta tashkil etishda ishtirok etgan bankda bir nechta kafolatlash obyekti mavjud bo‘lsa, ular bo‘yicha to‘lanadigan qo‘shimcha kompensatsiyaga nisbatan ushbu Qonun 27-moddasining yettinchi qismida nazarda tutilgan usul qo‘llaniladi.</p> <p>Qo‘shib olish va qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish natijasida huquqiy voris bo‘lgan bank qayta tashkil etish jarayoni tugagan kundan e‘tiboran besh kun ichida qo‘shimcha kompensatsiya olish huquqiga ega bo‘lgan omonatchilarni va Agentlikni qo‘shimcha kompensatsiya olish huquqi amal qilish muddati tugashi sanasi to‘g‘risida xabardor etadi.</p> <p>Qo‘shimcha kompensatsiya olish huquqiga ega bo‘lgan omonatchilar olti oy muddatda kafolatlash obyektingin kafolatlangan omonat miqdoridan oshadigan qismini hamda hisoblangan, lekin to‘lanmagan foizlarni muddatidan oldin olishga haqli. Bunda omonat va foizlarni muddatidan oldin olinganlik uchun to‘lov undirilmaydi.</p>
29-modda. Kompensatsiyalar to‘lash tartibi

Tugatuvchi Agentlikka kompensatsiya to‘lash jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishga ko‘maklashishi, Agentlik o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan va so‘ralgan axborot va ma‘lumotlarni ni unga taqdim etishi shart.

Tugatuvchi kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan sanadan e‘tiboran o‘n ish kuni ichida Agentlikka:

omonatchilarning va kafolatlash obyektlarining reestrini hamda tugatilayotgan bankingin omonatchilarga bo‘lgan talablari to‘g‘risidagi axborotni;

kafolatlash obyektlari egalriga to‘lanishi lozim bo‘lgan summalar haqidagi, shu jumladan ta‘minot sifatida berilgan, xatlangan, sud nizosi predmeti bo‘lgan yoki uchinchi shaxslar foydasiga qo‘yilgan kafolatlash obyektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni;

tugatilayotgan bankingin filial tarmog‘i to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi shart. Ushbu qismga muvofiq taqdim etiladigan reestring, ma‘lumotlarning va axborotning shakli Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan reestr, ma‘lumotlar yoki axborot o‘zgarigan taqdirda, tugatuvchi o‘zgarishlarni inobatga olgan holda uni (ularni) qaytadan taqdim etadi.

Agentlik tugatuvchidan ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan reestr, ma‘lumotlar va axborot olingan kundan e‘tiboran ikki ish kuni ichida:

1) ommaviy axborot vositalarida va o‘z rasmiy veb-saytida kafolatlash hodisasi yuz berganligi to‘g‘risidagi axborotni e‘lon qiladi, axborot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

kompensatsiyalarni to‘lash muddatini, joyini va uslubini;

kompensatsiyalarni olish uchun omonatchilar tomonidan bajarilishi kerak bo‘lgan shartlarni;

2) omonatchilarga kompensatsiyalarni to‘lash uchun Agentlikka taqdim etilgan reestrdragi o‘zlariga taalluqli ma‘lumotlar bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Agentlik tugatilayotgan bank omonatchilarining kamida to‘rtdan uch qismiga kompensatsiyalarni olish imkoniyatini:

2025-yil 1-yanvardan boshlab – kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan sanadan e‘tiboran yigirma ish kuni ichida;

2026-yil 1-yanvardan boshlab – kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan sanadan e‘tiboran o‘n besh ish kuni ichida;

2027-yil 1-yanvardan boshlab – kafolatlash hodisasi yuzaga kelgan sanadan e‘tiboran yetti ish kunida ta‘minlashi shart.

Ushbu modda beshinchi qismining uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan holda tugatuvchi Agentlikka ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan reestri, ma‘lumotlarni va axborotni sakkiz ish kuni ichida taqdim etadi, Agentlik esa ushbu moddaning to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan tadbirlarni ikki ish kuni ichida amalga oshiradi.

Ushbu modda beshinchi qismning to‘rtinchi xatboshisida nazarda tutilgan holda tugatuvchi Agentlikka ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan reestri, ma‘lumotlarni va axborotni uch ish kuni ichida taqdim etadi, Agentlik esa ushbu moddanning to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan tadbirlarni bir ish kuni ichida amalga oshiradi.

Kompensatsiyalar agent-bank orqali to‘lanishi, omonatchining (oluvchning) boshqa bankda ochilgan hisobvarag‘iga o‘tkazilishi yoki Kengash tomonidan belgilangan boshqa usullarda to‘lanishi mumkin.

Agent-bank vazifalarini bajarish uchun Agentlik Markaziy bank bilan kelishilgan holda Kengash tomonidan tasdiqlangan mezonlarga muvofiq bo‘lgan bitta yoki bir nechta bankni tanlashi mumkin.

Agent-bank Agentlik bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Agentlik nomidan ish yuritadi va kompensatsiyalarni to‘lash jarayonini amalga oshiradi, omonatchilarni identifikatsiyalaydi. Agent-bank kompensatsiyalarni to‘lash tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat asosida zarur hujjatlarni talab qilishga ham haqli. Agent-bank tomonidan kompensatsiyalarni to‘lash uchun belgilanadigan muddat bir yildan oshmasligi kerak.

Agentlik tomonidan omonatchiga to‘lanishi zarur bo‘lganidan ortiq miqdorda kompensatsiya to‘langan taqdirda, omonatchi ortiqcha to‘langan summani Agentlikning talabi bo‘yicha talab bildirilgan kundan e‘tiboran o‘n ish kuni ichida qaytarishi shart. Bunda ortiqcha to‘langan summa qaytarilmagan taqdirda, Agentlik mazkur summani undirish uchun sudga murojaat qilishga haqli.

Kompensatsiyani to‘lash yengib bo‘lmas kuch (fors-major) tufayli kechiktirilganligi uchun Agentlik javobgar bo‘lmaydi.

Agentlik kompensatsiyalarni to‘lash jarayoni haqidagi, shu jumladan omonatchilarga to‘langan summalar to‘g‘risidagi axborotni Markaziy bank tomonidan belgilangan davriy oraliqda o‘z rasmiy veb-saytida e‘lon qiladi.

Kompensatsiyalarni to‘lash tartibi va shartlari, shu jumladan kompensatsiyalarni olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxati hamda ularni rasmiylashtirishga doir talablar Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Ushbu Qonunga muvofiq Agentlikka va agent-bankka ma‘lumotlarni taqdim etish tijorat yoki bank sirining yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirning oshkor qilinishi deb hisoblanmaydi.

30-modda. Kompensatsiya to‘lashni to‘xtatib turish yoki rad etish
<p>Agentlik tomonidan kompensatsiya to‘lashni to‘xtatib turish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:</p> <p>kompensatsiya olish uchun taqdim etilgan hujjatlardagi ma‘lumotlarning ishonchliiligiga va (yoki) haqiqiyiligiga Agentlikda yoki agent-bankda shubha paydo bo‘lganligi;</p> <p>omonatchining talablari va tugatuvchi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlar o‘rtasida nomuvofiqlik mavjudligi;</p> <p>kafolatlash obyektiga nisbatan cheklov choralari mavjudligi, shu jumladan hisobvaraqqadagi pul mablag‘lari xatlanganligi yoki to‘xtatib qo‘yilganligi, hisobvaraqa bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatib turilganligi;</p> <p>kafolatlash obyekti sud nizosi predmeti bo‘lgan hollar to‘g‘risida Agentlik kompensatsiyalar to‘languniga qadar xabardor etilganligi.</p> <p>Ushbu modda birinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida nazarda tutilgan hollarda kompensatsiyalar to‘lashni to‘xtatib turish muddati shubha paydo bo‘lgan yoki nomuvofiqliklar aniql</p>

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2, 3-betlarda).

44-moddada. Mansabdor shaxslarni va xodimlarni o'z vazifalarini bajarishi chog'ida huquqi jihatdan himoya qilish

Kengashi a'zolari, bosh direktor, shuningdek Agentlik xodimlari, shu jumladan ularning vakolatlari tugatilganidan yoki Agentlikda ishlashni yakunlaganidan keyin faqat o'z vazifalarini bajarishi chog'ida insofsizlik bilan sodir etilgan harakatlari (harakatsizligi) uchun javobgar bo'ladi.

Agentlik ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarning manfaatlarini ular ushbu Qonunga muvofiq o'z vazifalarini bajarishga munosabati bilan qo'zg'atilgan sud ishi va ma'muriy ish yuritilishi doirasida, shu jumladan mazkur shaxslarning vakolatlari tugatilgan yoki Agentlikda ishlashi yakunlangan hollarda ifodalashga doir xarajatlarini to'laydi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

45-moddada. Nizolarni hal etish

Omonatchi kompensatsiyalar to'lanishi jarayonida sudga Agentlikning va (yoki) tugatuvchining xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilishga haqli.

Agentlik omonatchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartib-taomilini belgilovchi tartibga ega bo'lishi shart.

Agar omonatchi tugatuvchi tomonidan taqdim etilgan omonatchilar va kafolatlash obyektleri reestriga kiritilmagan bo'lsa yoki o'ziga to'langan kompensatsiya miqdoridan rozi bo'lmasa, u tugatuvchiga o'z talablarining asosligini tasdiqlovchi hujjatlarining asl nusxalarini taqdim etgan holda, murojaat etishga haqli.

Tugatuvchi omonatchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar olingan kundan e'tiboran uch ish kunida ularni ko'rib chiqishi shart. Uning talablari asosli bo'lgan taqdirda, tugatuvchi omonatchilar va kafolatlangan obyektler reestriga tegishli o'zgartirishlar kiritishi, mazkur reestri Agentlikka taqdim etishi, shuningdek omonatchining talablarini ko'rib chiqish natijalari haqida Agentlikni, Markaziy bankni va omonatchini xabardor qilishi shart. Omonatchining talablari asossiz bo'lgan taqdirda, uning talablarini qanoatlantirish rad etiladi.

Omonatchining talablarini qanoatlantirish rad etilgan taqdirda, u Kengashga yoki sudga murojaat qilishga haqli.

46-moddada. Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

47-moddada. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

1. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan 163-I-sonli va 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan 256-I-sonli qonunlari bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 2-songa ilova, № 11-12; 1997-yil, № 2, 56-moddada; 2004-yil, № 1-2, 18-moddada; 2005-yil, № 9, 171-moddada; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 4, 154-moddada; № 9, 494, 498-moddalar; 2007-yil, № 1, 3, 5-moddalar; № 4, 156, 164-moddalar; № 8, 367-moddada; № 9, 416-moddada; № 12, 598, 608-moddalar; 2008-yil, № 4, 192-moddada; № 12, 640-moddada; 2009-yil, № 9, 337-moddada; 2010-yil, № 9, 335, 337, 340-moddalar; 2011-yil, № 12/2, 363, 364, 365-moddalar; 2012-yil, № 4, 106, 109-moddalar; № 12, 336-moddada; 2013-yil, № 10, 263-moddada; 2014-yil, № 5, 130-moddada; № 12, 343-moddada; 2015-yil, №

8, 310, 312-moddalar; 2016-yil, № 4, 125-moddada; 2017-yil, № 4, 137-moddada, № 9, 510-moddada; № 12, 773-moddada; 2018-yil, № 1, 4-moddada, № 4, 224-moddada, № 7, 433-moddada, № 10, 673-moddada; 2019-yil, № 3, 161, 166-moddalar, № 5, 267-moddada, № 10, 671-moddada; № 12, 880, 886-moddalar; 2020-yil, № 1, 3, 4-moddalar, № 10, 593-moddada; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 801-moddada, № 10, 968-moddada; 2022-yil, № 2, 79-moddada, № 3, 217, 218-moddalar, № 4, 340-moddada, № 5, 464-moddada, № 6, 570, 577-moddalar; № 11, 1061, 1062-moddalar; 2023-yil, № 10, 795-moddada, № 11, 921-moddada; 2024-yil, № 2, 111, 114-moddalar, № 6, 530-moddada, № 9, 960-moddada) 163-moddasining uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"omonatchilarning o'z omonatlarini berish to'g'risida bankka qo'yadigan talablariga, shuningdek Omonatlarni kafolatlash agentligiga kafolatlangan omonatlar bo'yicha kompensatsiyalar to'lanishiga doir talablariga".

2. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi 154-I-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrda qabul qilingan O'RQ-582-sonli Qonuni tahrirda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 11, 790-moddada; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-moddada; 2022-yil, № 3, 217-moddada, № 4, 340-moddada; 2023-yil, № 11, 923-moddada; № 9, 965-moddada) quyidagi o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin:

1) 25-moddada ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"banklar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning kuzatuv kengashlari tarkibiga kirish, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno";

2) 61-moddada ikkinchi qismning oltinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Omonatlarni kafolatlash jamg'armasiga banklar tomonidan har chorakda to'lanadigan kalendar badalga qo'shimcha ajratilgan miqdorini belgilashga";

3) quyidagi mazmundagi 67-moddada bilan to'ldirilsin:

«67-moddada. Banklardagi omonatlarni kafolatlash tizimining ishlaganida qo'riq Markaziy bankning vazifalari va vakolatlari

Markaziy bank banklardagi omonatlarni kafolatlash tizimi ishlagan yuzasidan quyidagilarni belgilaydi: banklar tomonidan Omonatlarni kafolatlash jamg'armasiga badallar to'lash tartibini;

Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan kafolatlangan omonatlar bo'yicha kompensatsiyalar to'lash tartibi va shartlarini, shu jumladan kafolatlangan omonatlar bo'yicha kompensatsiya olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxatini, shuningdek ularni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarini; omonatlarni kafolatlash tizimi to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish tartibi va shartlarini.

Omonatlarni kafolatlash jamg'armasi mablag'larining taqchilligi yuzaga kelganda Markaziy bank likvidlikni ta'minlash uchun Omonatlarni kafolatlash agentligiga uch oygacha bo'lgan muddatga kredit berishi mumkin.

3. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi 216-I-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrda qabul qilingan O'RQ-580-sonli Qonuni tahrirda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 11, 788-moddada; 2020-yil, № 1, 1-moddada; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-moddada; 2023-yil, № 4, 267-moddada, № 11, 923-moddada; 2024-yil, № 2, 105, 111-moddalar, № 9, 965-moddada) 55-moddasi quyidagi mazmundagi o'ninchi xatboshi bilan to'ldirilsin: "banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganligi";

o'ninchi xatboshi o'n birinchi xatboshi deb hisoblanisan.

4. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustda qabul qilingan "Bank siri to'g'risida"gi 530-II-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 9-10, 144-moddada; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9,

312-moddada; 2009-yil, № 9, 337-moddada; 2012-yil, № 4, 105-moddada; 2016-yil, № 4, 125-moddada; 2017-yil, № 9, 510-moddada; 2019-yil, № 1, 5-moddada; 2021-yil, 4-songa ilova, № 6, 524-moddada; 2022-yil, № 4, 337-moddada; 2024-yil, № 9, 965-moddada) 14-moddasining ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Bank siri tasviri tashkil etuvchi ma'lumotlar Omonatlarni kafolatlash agentligiga, shuningdek kafolatlangan omonatlar bo'yicha kompensatsiya to'lash uchun agent-banklarga taqdim etiladi".

5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O'RQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, 12-songa 1-ilova; 2020-yil, № 3, 198-moddada, № 10, 593-moddada, № 11, 652-moddada, № 12, 690, 691-moddalar; 2021-yil, № 1, 6-moddada, № 4, 294-moddada, 4-songa ilova, № 8, 800-moddada, № 9, 901-moddada, № 10, 968, 969, 972, 973-moddalar, № 12, 1199-moddada; 2023-yil, № 2, 79-moddada, № 3, 215, 216-moddalar, № 5, 461, 464, 467-moddalar; № 6, 570-moddada, № 7, 664, 666-moddalar; № 12, 1190-moddada; 2024-yil, № 2, 106, 110, 111-moddalar, № 4, 346-moddada, № 5, 458, 459-moddalar, № 8, 822, 831-moddalar, № 9, 958-moddada) 75-moddasining to'qqizinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning muassasalari, shuningdek Omonatlarni kafolatlash agentligi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan soliqlarni to'lashdan ozod etiladi, bundan ijtimoiy soliq va O'zbekiston Respublikasining hududiga tovarlarni olib kirishda (importida) to'lanadigan qo'shimcha qiymat solig'i mustasno".

6. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-aprelda qabul qilingan "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'RQ-763-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 4, 338-moddada; 2023-yil, № 11, 923-moddada; 2024-yil, № 1, 5-moddada, № 8, 823-moddada) 181-moddasining uchinchi qismidagi "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi" degan so'zlar "Omonatlarni kafolatlash agentligi" degan so'z bilan almastirilsin.

48-moddada. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi 360-II-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 4-5, 70-moddada);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi 361-II-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 4-5, 71-moddada);

3) O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 6-aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasiga o'zgartirish kiritish haqida"gi O'RQ-203-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009-yil, № 4, 130-moddada);

4) O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 9-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-646-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 11, 652-moddada) 5-moddasi;

5) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-683-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) 138-moddasi.

AHOLI MANFAATLARI VA IJTIMOY MUHOFAZASI — ASOSIY VAZIFA

Deputatlarning ta'kidlashicha, ushbu qonun loyihasinging qabul qilinishi faoliyat turidan qat'i nazar, ishlayotgan xodimlarga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqasi hamda ishdan bo'shatish nafaqasining to'liq to'lanishiga va ijtimoiy faol aholing kambag'al oilalar toifasiga tushib qolishining oldini olishga xizmat qiladi.

Majlisdagi qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Sifatli tibbiy xizmat olish huquqi himoya qilinadi

Aholiga kafolatlangan tibbiy yordam hajmiga kiritilgan xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilingan.

Mazkur qonun loyihasi bilan aholiga 1-yanvargacha qadar parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarini yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (ekin maydonlaridan tashqari) to'lashdan ozod etish belgilanmoqda.

Shu bilan birga, 2027-yil 1-yanvargacha qadar bo'lgan davrda O'zbekiston kasaba uyushmalarini Federatsiyasi tizimidagi stasionar bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari bino-inshootlari va yer uchastkalarini ijaraga berishdan olingan daromadlari bo'yicha foyda solig'i, shuningdek, ijaraga berilgan obyektlari va ular egallagan yer uchastkalari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lashdan ozod etilishi nazarda tutilmoqda.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasinging qabul qilinishi parrandachilik korxonalarini faoliyatini yanada qo'llab-

quvvatlashga zarur shart-sharoit olish uchun avtomatik tarzda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Qonun loyihasinging qabul qilinishi natijasida aholining yuqori sifatli tibbiy xizmat olish huquqlari samarali himoyalangan va birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida fuqarolarga qo'shimcha tibbiy yordamni oliiviy shifokor yoki tibbiyot brigadasi yo'llanmasisiz to'g'ridan-to'g'ri pullik asosda ko'rsatish imkonini beradi.

Majlisdagi qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Tadbirkorlarga qanday imtiyoz berilyapti?

Majlisdagi ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat — parrandachilik sohasini rivojlantirish, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarining faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Mazkur qonun loyihasi bilan 2030-yil 1-yanvargacha qadar parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarini yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (ekin maydonlaridan tashqari) to'lashdan ozod etish belgilanmoqda.

Shu bilan birga, 2027-yil 1-yanvargacha qadar bo'lgan davrda O'zbekiston kasaba uyushmalarini Federatsiyasi tizimidagi stasionar bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari bino-inshootlari va yer uchastkalarini ijaraga berishdan olingan daromadlari bo'yicha foyda solig'i, shuningdek, ijaraga berilgan obyektlari va ular egallagan yer uchastkalari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lashdan ozod etilishi nazarda tutilmoqda.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasinging qabul qilinishi parrandachilik korxonalarini faoliyatini yanada qo'llab-

quvvatlashga zarur shart-sharoit yaratadi. Bolalarni sog'lomlashtirish va aqliy rivojlantirish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Majlisdagi qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Pensiya tayinlashda inson omili kamaytiriladi

Majlisdagi aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-moddada ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, ushbu qonun loyihasi aholiga pensiya tayinlash tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini faol taqib etilgan holda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirishni nazarda tutadi.

Loyiha bilan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga pensiya olish yoshiga to'lgan (eraklar 60 yosh, ayollar 55 yosh) fuqarolarga yoshga doir pensiyani ularning alohida murojaatini talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibini belgilashga oid qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Majlisdagi mazkur qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida mas'ul qo'mita tomonidan bir qator yig'ilishlar, seminarlar o'tkazilgan, ulara deputatlar bergan barcha taklif chuqur tahlil qilinib, ular asosida qonun loyihasi qishiq-puxta holatga keltirilgan holda maromiga yetkazilgan qayd etildi.

Deputatlar qonun loyihasi bilan aholiga pensiya tayinlash tizimiga zamonaviy raqamli texnologiyalarning faol taqib qilinishi davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirishini bir ovzodan e'tirof etildi.

Majlisdagi qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Ixtirolar, asarlar va boshqa mualliflik mahsulotlari himoya qilinishi mustahkamlanmoqda

Majlisdagi intellektual mulk himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklar soni va ulami sodir etish usullarining ko'lami ortib borayotgani intellektual mulk egalari, xususan, mualliflar, ijodkorlar, ixtirochilar va boshqa huquq egalari huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini samarali himoya qilishni taqozo etmoqda.

Tahsilarga ko'ra so'nggi besh yilda intellektual mulkdan tadbirkorlik faoliyatida foydalanish ko'laminin ortishi va ayrim biznes vakillari tomonidan nohalol tadbirkorlik faoliyati olib borilishi sababli bu yo'nalishdagi huquqbuzarliklar soni keskin oshgan. Jumladan, 2023-yilda sudlar tomonidan intellektual mulk obyektlari himoyasiga oid 240 dan ortiq ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilingan.

2024-yilda esa intellektual mulk huquqlarini buzish holatlari bo'yicha mualliflar foydasiga sud qarorlari bilan bir milliard so'mga yaqin tovon puli undirilgan.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat, Jinoyat-prosessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Fuqarolik kodekslariga mualliflik huquqi hamda turdosh huquqlarni, shuningdek, sanoat mulki obyektlariga bo'lgan huquqlarni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Qonun loyihasi jamiyatda intellektual mulk huquqiga bo'lgan hurmat hissini shakllantirish va intellektual mulk egalariining moddiy manfaatlarini himoyalashga xizmat qiladi.

Majlisdagi qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

"TILDA, FIKRDA, ISHDA BIRLIK!"

"Jadid" gazetasi kutubxonasi» turkumi ostida shu nomdagi kitob nashr etildi

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2024-yil 1-yanvardan boshlab chop etilayotgan "Jadid" gazetasi o'tgan qisqa davrda o'z o'quvchilarini topishga ulgurdi. Bu bejiz emas, albatta.

Mutolaa

Gazeta sahifalarida jaddilarning millatni isloh etishga oid g'oyalari, asarlaridan namunalari, shuningdek, "Davri ruhi", "O'yina", "Jamiyat", "Zamon jaddilari", "Taklif", "Muloqaza", "Tamaddun", "Boqiy meros", "Fikr maydoni" kabi ruknlar ostida taniqli siyosatchilar, sotsiologlar, adabiyotshunoslar, yozuvchi va shoirlar, publitsistlar, olimlar, tarixchilarning ilmiy-ommabop maqolalari berib borilmoqda.

Albatta, har bir nashring o'z rivojlanish yo'li, mamlakatimiz ravnaqida o'z o'rni bor. "Jadid" gazetasi esa matbuotni "butun dunyodagi madaniy millatlarining hayot yo'llari, olamdagi darajalari hamda insoniyat taraqqiyosining eng yuqori pog'onasiga erishmoq uchun lozim bo'lgan sa'y-harakatlari to'g'risida bir-birlari bilan maslahat va kengash yozmoq uchun bag'oyat zarur bir vosita", deb bilgan jadid bolalarimizning ezu an'analari davom ettirishga intilayotgan nashr sifatida media maydonida yuz ko'rsatadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davrida huquqiy demokratiya davlati va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida chuqur islohotlarga amalga oshirilgan ekan, matbuot va so'z erkinligini ta'minlashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Ommaviy axborot vositalari ommaga yuritimidagi tarixiy yangilanishlarni ro'yroft ko'rsatadigan, turli sohalarda mavjud kamchilik va muammolarni xolisona tahlil qilib, ularning yechimlarini beradigan fikr va qarashlar, talqinlar kurashi maydoniga, jamiyat yuziga tutilgan ko'zguna

Mazkur nashr jonajon Vatanimizni sevgan, uning taraqqiyoti va porloq kelajagi uchun o'zini daxldor sezgan har bir yurtdoshimiz, ma'rifatparvar ajdodlarimizga munosib izdosh bo'lishga intilayotgan jasoratli ziyolilarimiz uchun minbarga aylanib bormoqda.



aylanib bormoqda.

"Jadid" gazetasi ana shu qizg'in jarayonda xalqimiz oydinlarining mustabid tuzum zamonida ilgari surgan g'oyalari, istiqbol rejalariga urg'u qaratib qolmay, yurtimizda ro'y berayotgan buqung'o'zgarishlarning ma'no-mohiyati hamda ahamiyatini o'ziga xos usul va uslubda yoritishga harakat qilaypti.

"Tilda, fikrda, ishda birlik!" kitobida tahririyat jamoasining bir yillik faoliyatini sarhisobi o'laraq nashr sahifalarida tugatgan g'oyalari, istiqbol rejalariga urg'u qaratib qolmay, yurtimizda ro'y berayotgan buqung'o'zgarishlarning ma'no-mohiyati hamda ahamiyatini o'ziga xos usul va uslubda yoritishga harakat qilaypti.

Ana shu ezuq maqsad yo'lida tahririyat tomonidan eng sara maqolalarni kitob holida nashr etish an'anaviy tus olishiga ishonamiz.

"Xalq so'zi".

Advertisement for 'Xalq so'zi' newspaper, including contact information, subscription rates, and a QR code.